

TALABALARDA TINGLAB TUSHUNISH VA GAPIRISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA MASHQ VA TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH

Shomuradova Dilbar Abdishukurovna

O'zDSMI katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishni nazarda tutuvchi professional chet tilini o'qitish talabaning ehtiyojlarini, o'quv jarayonining maqsad va vazifalarini hisobga oladigan muayyan tamoyillar, talablar va qoidalar asosida amalga oshirilishi kerak. Bu jarayonning yana bir muhim sharti bu to'g'ri tanlangan mashq va topshiriqlar majmuidir. Mazkur maqolada nutq faoliyati turlarini tizimli rivojlantirishga qaratilgan ba'zi mashq turlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: mashq va topshiriqlar, metodika, tinglab tushunish, gapirish, og'zaki muloqot, tayyorgarlik mashqlari.

USING EXERCISES AND TASKS TO DEVELOP STUDENTS' LISTENING AND SPEAKING SKILLS

Abstract

Professional training in a foreign language, which involves the development of communicative competence, should be carried out on the basis of certain principles, requirements and rules that take into account the needs of the student, the goals and objectives of the educational process. Another important condition for this process is a correctly selected set of exercises and tasks. This article analyzes some types of exercises aimed at the systematic development of speech activity.

Keywords: exercises and tasks, methodology, listening comprehension, speaking, oral communication, preparatory exercises.



ИСПОЛЬЗОВАНИЕ УПРАЖНЕНИЙ И ЗАДАНИЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ АУДИРОВАНИЯ И ГОВОРЕНИЯ СТУДЕНТОВ

Абстракт

Профессиональная подготовка по иностранному языку, предполагающая развитие коммуникативной компетентности, должна осуществляться на основе определенных принципов, требований и правил, учитывающих потребности обучающегося, цели и задачи образовательного процесса. Еще одним важным условием этого процесса является правильно подобранный комплекс упражнений и заданий. В данной статье анализируются некоторые виды упражнений, направленных на систематическое развитие речевой деятельности.

Ключевые слова: упражнения и задания, методика, понимание на слух, говорение, устное общение, подготовительные упражнения.

Chet tilida nutqiy faoliyat turlarini rivojlantirish jarayonida o'quv materialini tanlash va tashkil etish, shu bilan birga mashq hamda topshiriqlar majmuasini yaratish muhimdir. Mazkur muammo chet tillarini o'qitish metodikasidagi eng dolzarb masalalardan biridir. U ko'plab olimlar P. B. Gurvich, M. S. Ilyin, B. A. Lapidus, A. A. Miroyubov, I. E. Passov, I. D. Salistra, V. L. Skalkin, S. F. Shatilovalar tomonidan batafsil ko'rib chiqilgan.

O'qish va yozish kabi ko'nikmalar bilan solishtirganda, tinglab tushunishni rivojlantirish ob'ektiv ravishda qiyinroq bo'lishi mumkin, chunki bu yerda bir nechta omillar mavjud. Ular:

- suhbat tezligi;
 - dialektlar;
 - "noto'g'ri" tovushlar (ona tilida so'zlashuvchilar har doim ham so'zlarni lug'atlar va darsliklarda keltirilganidek talaffuz qilmaydi, ular qisqartmalar va qisqartirilgan shakllaridan foydalanadilar);
 - yomon/sifatsiz texnika (eski audioyozuvlar, nosoz quloqchinkar, yomon internet aloqasi)
- bularning barchasi nutqni tinglashda qo'shimcha qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

"Tinglab tushunish murakkab nutq faoliyati, chunki tinglovchi eshitgan materialini tezda qabul qila olishi va mazmunini tushuna olishi, xotirada saqlab



qolishi zarur, aks holda uni qaytadan ko‘rib, o‘qib, tushuna olishi uchun manba, sharoit, vosita mavjud emas.” [1]

“Tinglashning maqsadi har xil bo‘lishi mumkin: tushunish, eslab qolish, baholash, bajarish. Shu sababli, o‘qituvchi maqsadni aniq bayon qilishi kerak, masalan: "Matnni tinglang va muallifning fikriga rozi/norozi ekanligingizni ayting". Aks holda tinglash jarayoni samarasiz bo‘ladi.” [4]

“Tinglashning pertseptiv asoslarini rivojlantirish, shuningdek, matnni to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqdim etishdan oldin (ayniqsa, mashg‘ulotning dastlabki bosqichlarida) talabaning og‘zaki muloqotga kirishini osonlashtirish uchun tayyorgarlik mashqlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Masalan, yangi matnni tinglashdan oldin yangi so‘zlarning tarjimalarini berish va ushbu material bilan oddiy mashqlarni bajarish (alohida jummalarni tarjima qilish, yangi iboralar tuzish, ba‘zi so‘zlarni boshqalar bilan almashtirish).” [5]

Tayyorgarlik mashqlaridga misol qilib uy vazifasiga berilgan topshiriqlarni ham kiritish mumkin, ularni talaba matn o‘rganiladigan darsdan oldin mustaqil bajaradi va bu mashg‘ulotlar davomida tayyorgarlik mashqlariga ajratiladigan vaqtni tejashga yordam beradi.

Tinglab tushunish mashqlar quyidagi topshiriqlardan tashkil topishi mumkin:

1. matnni tinglang va nuqtalar o‘rnini yetishmayotgan so‘zlar bilan to‘ldiring;
2. quyidagi iboralardan qaysi biri matnda o‘zgarmagan holda ishlatilganligini ayting;
3. matnni tinglang va unda quyidagi so‘zlarga qanday ta’riflar berilganini ayting.
4. quyidagi gaplarni to‘ldiring.
5. matnni tinglang va unda nima/kim haqida nima deyilganini ayting.
6. matnni tinglang va parallel ustundagi so‘zlarning o‘zbekcha/inglizcha ekvivalentini toping.

Chet tilini o‘qitish jarayonida gapirish/speaking ko‘nikmasini rivojlantirish va shakllantirishda dialog eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Material sifatida:

- darsliklardan olingan dialoglar;
- pyesa dialoglari;
- kino skriptlari;
- badiiy adabiyotdan olingan dialoglar;
- komikslar;
- videodan olingan dialoglardan foydalanish mumkin.



Dialoglar asosida bajarilishi mumkin bo'lgan mashq va topshiriqlar:

1. "Ijro eting" topshirig'i:

Talabalarga mashhur film, kitob yoki o'yindan dialoglar tarqatiladi. Rollar taqsimlanib, yangi lug'at tahlil qilinadi. Talabalardan sahna ko'rinishini ijro etib, uning davomini sahnalashtirish so'raladi.

2. Dialogli boshqotirma:

Dialogning har bir gapi alohida kartalarga yoziladi va aralashtiriladi. Talabalardan kartochkalarni qaytadan dialog ko'rinishiga keltirib, uni o'qib, sahnalashtirib berish so'raladi.

3. Dialog tuzing:

Talabalarga muloqot qilayotgan odamlarning rasmi beriladi. Ulardan vaziyatdan kelib chiqib dialog tuzish, so'ngra uni ijro etib berish so'raladi.

6. Pyesa yozing:

Talabalarga hikoya oddiy matn shaklida beriladi. Ulardan uni spektaklga aylantirib, uni sahnalashtirish so'raladi.

"Ashula va raqs" ta'lim yo'nalishi bevosita qo'shiq va musiqa bilan chambarchas bog'liqligini hisobga olib, ushbu yo'nalish talabalarining ingliz tilida gapirish va tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda ingliz qo'shiqlardan foydalanish eng samarali usullardan biridir.

"O'quv jarayonida qo'shiq materialidan foydalanish, shubhasiz, o'quvchilarning o'quv faoliyatida emotsional jihatni kuchaytirishga va unda ana shunday lahzalarni yaratishga hissa qo'shadi. Bu talabalarining dam olishini rag'batlantiradi va natijada til materialini yaxshiroq yodlash va o'zlashtirishga yordam beradi." [2]

Qo'shiqni auditoriyaga eshittirishdan oldin "Lead in" mashqlaridan foydalanish kerak bo'ladi, avvalo, qo'shiq nomi doskada yoziladi va talabalardan qo'shiq nima haqida ekanligini taxmin qilish so'raladi. Shuningdek, mavzu doirasida bir qancha savollar beriladi:

Speaking:

Activity 1. Discuss the following questions in a group:

1. What is the song about?

1. What is the role of music in your life?

2. What kinds of musics do you know?

3. Why do people listen to music?

4. When do you like listening to music?

5. What kind of music is popular in your country?



Yuqoridagi savollarga javob berish orqali talabalarda dars mavzusiga qiziqish uygʻonadi. Shuningdek, talabalarning gapirish koʻnikmasi rivojlanadi.

Listening:

Activity 2. Fill in the gaps with the words given in the box. Then listen to the song and check your answers. There are some extra words:

reality, believe, darkness, wonder, stream, everything, destination, anything,
something, moments

I HAVE A DREAM

I have a dream, a song to sing

To help me cope with (1) ____

If you see the (2) ____ of a fairy tale

You can take the future even if you
fail

I believe in angels

(3) ____ good in (4) ____ I see

I believe in angels

I'll cross the (5) ____ - I have a dream

Oh yeah

I have a dream, a fantasy

To help me through (6) ____

And my (7) ____ makes it worth the
while

Pushing through the (8) ____

Still another mile

Bu topshiriqni talabalar soʻz maʼnosi, qofiyasi va ritmiga, yetishmayotgan soʻzning qaysi soʻz turkumidan ekanligiga eʼtibor qaratib bajarishadi, oʻqituvchi qoʻshiqni eshittirgach vazifani tekshiriladi.

Activity 3. Ask your partner about his/her dream and tell the class about it:

- What is your dream? (Sizning orzuvingiz nima?)

Ushbu savolga javob berishda talabalar “Will” va “To be going to” oborotidan faol foydalanishadi. Shuning uchun, bu mashq Future simple grammatik mavzusi tushuntirilganda yoki qaytarilganda ayniqsa qoʻl keladi.

Muloqot jarayonida leksik vaziyat, shart-sharoitlar, muhit, suhbatning maqsad va vazifalari tez-tez oʻzgarib turadi. Shuning uchun, mashq va topshiriqlar talabalarning har xil tabiiy kommunikatsiya vaziyatlariga moslashib harakat qila olish qobiliyatini maksimal darajada shakllantirishi kerak. Bu borada V.A. Artyomov “ Mashgʻulotlar jarayonida nutq vaziyatlarining har xilligini taʼminlash muhim. Bu maqsadda, subtitrlı maxsus filmlardan foydalanish



mumkin va ular mazmunan qiziqarli, yo'nalishi bo'yicha kommunikativ, ta'limga mos kelishi uchun uslubiy xarakterga ega bo'lishi kerak" deb ta'kidlaydi [3].

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, mashqlar tizimini tuzishda asosiy tamoyillarini, o'quv maqsadlarini, o'quv materialining o'ziga xos xususiyatlarini va maxsus atama va terminalogiyani hisobga olish kerak. Chet tilini, shu jumladan professional tilni o'rgatish jarayonining ajralmas qismi bo'lgan nutq mashqlari nafaqat nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga, balki keyingi kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan kommunikativ kompetentsiyani shakllantirishga yordam beradi,

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ў. Ҳошимов, И. Ёқубов. Инглиз тили ўқитиш методикаси. – Т.: “Шарқ”, 2003.-131б.
2. Гез Н.И. О факторах, определяющих успешность аудирования иноязычной речи //Иностранные языки в школе. - М.: Просвещение, 1977.- №5.- С. 32-42
3. Артёмов В.А. Психология обучения иностранным языкам / В.А. Артемов. – М., 2002. – 56 с.
4. Meretukova M.M. Skazka kak chast' angliyskogo natsional'nogo fol'klora // Sbornik nauchnykh trudov Sworld, 2011. Vol. 24. No. 3. S. 84–85.
5. Вердеш, А. А. Роль аудирования в речевой деятельности и процессе обучения иностранному языку / А. А. Вердеш. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2015. — № 10 (90). — С. 1110-1113. — URL: <https://moluch.ru/archive/90/18849/> (дата обращения: 13.09.2024).
6. Berishvili N.I. Chtenie kak sredstvo obucheniya govoreniyu v heyazykovom vuze [Reading as a Means of Teaching Speaking in Non-Linguistic Linguistic Institution of Higher Education]. Moscow, MSPIFL Publ., 1984.
7. Tsepilova A.V. Molodoy Uchenyy — Young Scientist, 2013, no. 2, pp. 409-411.

